
Obodlikdan yashnagan manzillar - Farg'ona shahri

Vatanga muhabbat va sadoqat kabi ezgu g'oyalarni o'zida mujassam etgan Navro'z bayrami shodiyonalari tobora yaqinlashmoqda. Ezgu ayyom barcha sof niyatli insonlarni birlashtirib, ularning qalbida eng go'zal va olijanob tuyg'ularni uyg'otadi.

Navro'zi olam bayram tantanalari millati, tili va dinidan qat'iy nazar, ko'p qavatli uylarda yashayotgan barcha yurtdoshlarimiz tomonidan ham ko'tarinki ruhda nishonlanmoqda.

Farg'ona shahrida faoliyat olib borayotgan boshqaruv servis kompaniyalari ham o'z hududlarida ushbu qutlug' ayyomni munosib kutib olishga qizg'in taraddud ko'rmoqdalar. Boshqaruv kompaniyalari tomonidan ko'p qavatli uylarning atrof hududini yashil makonga aylantirish tadbirlari davom etmoqda.

Jumladan, Farg'ona shahridagi "Safort konsensus kommunal" boshqaruv kompaniyasi tomonidan 43 ta ko'p qavatli uylarning atrof hududidagi daraxtlarga shakl berilib, oxaklandi. Shuningdek, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari keng ko'lamda olib borilmoqda.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-14 19:28:58